

Maxmudova Nargiza Soat qizi

Alfraganus Universiteti Filologiya fakulteti ingliz filologiyasi yo`nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz tilidagi «A/a» harfining fonetik jihatdan to`liq tasnifi ko`rsatib o`tilgan. O`quv jarayonidagi «A/a» harfini noto`g`ri talaffuz qilinishi bilan yuzaga keladigan muammolar va ularga yechim berilgan.*

Kalit so`zlar: *fonetika, unli harflar, unli tovushlar, «A/a» harfi, diftong, schwa*

Abstract: *This article provides a complete phonetic classification of the English letter “A/a”. It discusses the problems that arise from the incorrect pronunciation of the letter “A/a” during the learning process and offers solutions to these issues.*

Key words: *phonetics, vowels, vowel sounds, the letter “A/a”, diphthong, schwa*

Абстрактный: *В данной статье представлена полная фонетическая классификация английской буквы «A/a». Рассматриваются проблемы, возникающие при неправильном произношении буквы «A/a» в процессе обучения, и предлагаются их решения.*

Ключевые слова: *фонетика, гласные буквы, гласные звуки, буква «A/a», дифтонг, schwa*

KIRISH

Ingliz tili ko`p tillar qatori yozuvda boshqa, talaffuzda boshqa ko`rinishga ega bo`lgan tildir. Bu esa ingliz tilini o`rganayotgan o`quvchilar uchun eng katta muammolardan biridir. «Biz bilamizki, ko`p tillarda so`zlarning talaffuzi bilan uning yozilishida tafovut bor. Bu tabiiyki o`quvchida so`zlarni to`g`ri o`qish yoki eshitib yodlagan so`zini to`g`ri yozishda qiyinchiliklar tug`diradi. Lekin tilni o`rganishga qattiq kirishgan o`quvchi uchun hech qanday to`sিqlar o`z maqsadiga erishish yo`lida g`ov bo`la olmaydi. Ana shunday daqiqalarda unga o`rganayotgan tilining fonetikasi eng yaxshi yo`lboshchidir».[1,350] Bu muammoning yechimi esa ingliz tili fonetikasiga e`tiborni kuchliroq qaratib, har bir qonun qoidasini mukammal o`rganishdir. Ingliz tilida 26 ta harf, 44 ta tovush bor. Shulardan 24 tasi undosh harflar, 20 tasi unli harflardir.

«A/a» HARFINING CHUQUR TAHLILI VA METODOLOGIYA

So`zlarni o`qiyotganda qiyinchilikka uchramaslik yohud qonun qoidalarni chalkashtirib yubormaslik uchun har bir harfning qoidalari alohida to`xtalib o`tmox, alohida o`rganmoq eng maqbul yo`llardan biridir. Shuning uchun eng boshidan, ingliz tili alifbosining birinchi harfi «A/a» harfining to`liq tasnifini ko`rib chiqishdan boshlaymiz. «A/a» harfi ingliz tili alifbosining birinchi harfidir va uning ingliz tilidagi nomi [eɪ]. «A/a» harfi umumiy miqdorda 9 ta tovush bilan o`qiladi. Shulardan 7 tasi ko`p hollarda uchraydigan tovushlar, bular: [ɪ] [æ] [a:] [eə] [ə] [eɪ] [ɔ:]

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-8 ISSUE-4 (30- April)

«A/a» harfining 2 ta tovushi esa ayrim hollardagina uchraydi bular: [ɛ][ɒ] Yana bir turi borki u ingliz nomi bn aytganda «Silent A» ya`ni o'qilmaydigan A harfi. Yuqorida ko`rsatilganidek A harfi 2 ta diftong bilan ham o'qiladi. «A/a» harfining o'qilish qoidalari M.T. Irisqulovning «English phonetics» kitobida ham to'liq ko`rsatib o'tilgan.[2,22]

A a	Stressed open syllable	[ei]	take, place, name, cake, state
	Stressed close syllable	[æ]	map, sat, stand, happy, apple
	Stressed syllable before r	[a:]	car, art, dark, farm, party
	Stressed syllable before re	[eə]	care, bare, share, prepare
	Unstressed syllable	[ə]	ago, about, legal, formal
	ai, ay	[ei]	main, chain, day, way, play
	aw, au	[ɔ:]	saw, law, autumn, cause
	ar after w	[ɔ:]	war, warm, warn
	ar after qu	[ɔ:]	quarter, quarrel
	an + consonant	[a:]	answer, dance, chance
	a + ss, st, sk	[a:]	class, last, ask, task
	a + ft, a + th	[a:]	after, craft, bath, rather
	w(h) + a	[ɒ]	watch, wash, was, what, want

«Aa» harfi turli holatlarda qanday tovush bilan o'qilishini birma bir ko'rib o'tamiz.

A/a=[æ] bu ko'rinish ingliz tilida urg'u olgan yopiq bo'g'inli so'zlarda uchraydi. Masalan, cat ['cæt] bunda so'z urg'u olgan va undosh harf bilan tugagan ya`ni yopiq bo'g'in. Shuning uchun bu so'zda [æ] tovushi bilan o'qilmoqda. Bunday so'zlarga bir qancha misollar keltirib o'tamiz: rack, exactly, actually, had

A/a=[eə] bu ko'rinish ingliz tilida «re» birikmasidan oldin urg'u olgan bo'g'inda keladi. Masalan, rare ['reə] bu so'zda ko'rib turganingizdek so'zning oxiridagi «re» birikmasi o'zidan oldingi A harfini [eə] diftongiga o'zgartiriyapti.

A/a=[a:] bu ko'rinish ingliz tilida 4 xil holatda uchraydi:

1.Urg'u olgan bo'g'in «r» harfidan oldin kelsa: bar ['ba:r]

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-8 ISSUE-4 (30- April)

2.«an» birikmasidan so'ng yana bir undosh kelsa: answer ['a:nə]. Biroq bu qoida doim ham ishlayvermaydi. Bu birikma tarkiba ko'p so'zlarda [æ] tovushi bilan ham talaffuz qilinadi. Masalan, panther ['pænθə]

3.«a + ss, st, sk» harflar shu ketma ketlikda joylashsa ham [ɑ:] tovushi bilan talaffuz qilinadi: grass [gra:s] castle ['ka:səl] cask [ka:sk]

4. «a + ft, a + th» harflar shunday ketma ketlikda joylashganda: draft [dra:ft] father [fa:ðər]. [ɑ:] tovushi ingliz tilidagi «R/r» harfining nomi bilan bir xil talaffuz qilinadi.

A/a=[ɔ:] bu ko'rinish ham ingliz tilida 4 xil holatda uchraydi:

1. «aw, au» so'zlarda shunday harfli birikma bo'lib kelganda: paw [pɔ:]

August ['ɔ:gəst]

2. «w + ar» shunday ketma ketlikda kelganda: war [wɔ:]

3.«qu + ar» shunday ketma ketlikda kelganda: quartet [kwɔ:r'tət]

4.«a+ll» shunday ketma ketlikda kelganda: tall [tɔ:l]

A/a=[eɪ] bu ko'rinish ingliz tilida 2 xil holatda uchraydi:

1. Urg'u olgan ochiq bo'g'inli so'zlarda: table ['teɪbəl]

2. «ai, ay» so'zlarda shunday harfli birikma bo'lib kelganda: rain [reɪn] pay [peɪ]. Bu tovush «A/a» harfining nomi bilan bir xil.

A/a=[ɪ] bu ko'rinish ingliz tilida urg'u olmagan bo'g'inlarda uchraydi. Masalan, climat ['klaɪmɪt] bu so'zda A harfi 2-urg'usiz bo'g'inda turibdi va qisqa [ɪ] tovushi bilan o'qiladi. Bunday so'zlarga bir qancha misollar keltirib o'tamiz: private, legitimate, frigate.

A/a=[ə] schwa tovushi bilan talaffuz qilinadi. Bunday ko'rinishdagi talaffuzni ko'pchilik o'quvchilar bilmaydi. Bu tovishni ko'pincha o'zbek tilidagi [e] tovushi bilan adashtirishadi. Ammo bu tovush [e] tovushi emas. Schwa tovushi ingliz tilida juda ko'p uchraydi, u juda yumshoq, so'zda urg'u olmagan qismlaridan o'rinn oladi. «Notice the spelling of Alasca. It is written with three a vowels.

The letters are the same, but they don't sound the same. We say alAska, with stress on the second syllable. It is the only syllable with a full, clear "a" sound. The other two syllables are unstressed. They sound more like is /ə/. [3-71] Schwa tovushini tallafuz qilinayotganda nutq organlari bo'sh qo'yilgan holatda bo'ladi.

«A/a» harfi judayam ko'p hollarda urg'usiz bo'g'inlarda schwa tovushi bilan o'qiladi. Bazi holatlardagini urg'usiz so'zlarda qisqa [ɪ] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Yana ko'pchilik o'quvchilar xato qiladigan nozik nuqta bu artikillarning talaffuzidir, ularni ya`ni a va an artikillarini [e] tovushi bilan talaffuz qilishadi, bu esa ingliz tili tashuvchilari uchun juda erish eshtiladi. a va an artikallari ham aynan schwa tovushi bilan talaffuz qilinadi.

«A/a» harfining qo'l bilan sanoqli hollardagina uchraydigan 2 ta tovushi mavjud va bular:

1.A/a=[ɛ] bu tovushni faqat 3 ta so'zdagina uchratishingiz mumkun va bular:

Any ['enɪ], many ['menɪ], Thames ['temz]

2.A/a=[ɒ] bu tovushni esa faqat wh so'roq so'z «what» [wɒt] so'zida qo'llaymiz.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

«A/a» harfidagi yana bir jihat bu, ayrim so'zlarda o'qilmasligidir. Masalan, basically ['beɪslɪkli], separately ['səprɪtlɪ], automatically [ɔ:tə'mætlɪkli]

Quyida «A/a» harfininig barcha tovushlari ishtirok etgan jumla keltirib o'tamiz:

ən ævərlıdʒ fa:ðər mel seər ɔ:l hi hæz

An average father may share all he has.

Ko'pchilik o'quvchilarining xatosi umuman A harfini deyarli so'zning barcha qisimlarida bir xil [ɛ] tovushi bilan talaffuz qilishlaridir. Ammo ko'rib turganingizdek [ɛ] harfi faqatgini yuqorida ko'rsatib o'tib ketilgan 3 ta so'zdagini uchraydi. Shundan kelib chiqib bu xatoni qilmay, barcha qonun qoidalarini chuqur o'rganib, to'g'ri talaffuz qilmoq lozim.

XULOSA

O'quv dargohlarida barcha ingliz tili harflariga umumiylashtirish tasnif berib ketish yo'li bilan dars o'tiladi. O'ylaymanki har bir harfga alohida to'xtalib, analiz qilinib va uni ustida mashqlar ishlansa, o'quvchilarining o'zlashtirish jarayoni samaraliroq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Maxmudova N.S «INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM». Washington, USA 2025.
2. Irisqulov M.T, Shatunova A.S «ENGLISH PHONETICS». Toshkent 2011. Uzbekistan State University of World Languages
3. Baker L, Gershon S «SKILLFUL 1, second edition, listening & speaking». 2018. Macmillan education.